

MUHAMMAD RIZO OGHIY IJODIDA AXLOQIY GO'ZALLIKLAR

Ro'zmatova Sabrina Ashurmatovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy Filologiyasi
kafedrası 3 -kurs talabasi*

E-mail: sabrina.ruzmatova77@icloud.com

+998-33-052-27-18

Ilmiy rahbar: Sultanova Lola Akmalovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik fakulteti f.f.d(PhD)*

E-mail: lola_sultanova@inbox.ru

+99890-932-90-83

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy tadqiqotimiz orqali buyuk o'zbek shoiri, tarixchi hamda tarjimon Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning umr so'qmoqlari va undagi sinovlarini hamda nodir asarlaridagi ko'zga ko'ringan va ko'rinmagan go'zalliklarini yoritdik. Ogahiy o'z davrining ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biri bo'lib, uning yozma yodgorliklari cheksizdir. Tadqiqotimiz davomida Ogahiyning nafaqat o'z davridagi mavqeyi, balki she'rlarini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *Sharq klassik asarlari, mirob, „shakarlang“ (shol), modernizatsiya, mustazod janri, Qur'on, hadislar va tasavvuf.*

Ogahiy-taxallusi (to'liq ism-sharifi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li) (1809.17.12, Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'i — 1874.14.12) — o'zbek shoiri, tarixchi, tarjimon. Mirob oilasida tug'ilgan. Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan. Arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassik asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan. 1829-yilda amakisi va ustoz Munis vafot etgach, Xiva xoni Olloqulixon (1825—1842) Ogahiyning o'rniga mirob etib tayinlagan. Shu davrdan e'tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug'ullangan. Qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg'ul bir paytda otdan yiqilib, oyog'i shol bo'lib qolgan (1845). 1857-yildan miroblik vazifasidan iste'fo olgan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g'amgin va kasalmand ahvolda kun kechirgan.

Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishaq uning qalamidagi mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishdagi asosiy badiiy vositadir. She'riyatida ishq — iymon, e'tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Ogahiy janr imkoniyatlariga



ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o‘zigacha bo‘lgan 7—8, 10—12 baytli g‘azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan, mustazod janrining qo‘sh ortirma misrali yangi shaklini kashf etgan:

Ey yor, sango ushbu jahon bog‘i aro gul bir oshiqi hayron, diydoriga shaydo,

Bir shuyftadur kokili mushkulinga sumbul ham holi parishon, ham boshida savdo.

Muhammad Rizo Ogahiy ijtimoiy-axloqiy qarashlarida Qur‘on, hadislar va tasavvuf ta‘limotidagi insoniylik, poklik, mehr-u muruvvat, saxiylik, xokisorlik, insof, hayo, imon-e‘tiqod, vijdoniylik, bilimdonlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini egallash muhim o‘rin egallaydi. Bunday axloqiy g‘oyalar nafaqat o‘sha davrda, balki hozirda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, hayotning o‘zi tasdiqlaganidek, ma‘naviy barkamollik, axloqiy yetuklik mamlakatning demokratik taraqqiyotiga tayanch bo‘ladi. Shuning uchun ham jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish jarayonida mazkur ijtimoiy-axloqiy qarashlardan o‘rinli va samarali foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Muhammad Rizo Ogahiy falsafiy-axloqiy qarashlari negizida Sharq falsafasining ta‘siri yaqqol sezilib turadi. U o‘zi yashagan davrning eng muhim voqealarini qalamga olar ekan, inson ma‘naviyati, axloqi va xulq-odobiga hamda uni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratgan. Insonni ulug‘lab uni har narsadan sarbaland deb bilgan.

Sarbaland o Isam ajab ermas bani odam aro,

Kim muayyan ul sarafroz nasli odamdir mango.'

Ogahiy bu fikri bilan Tangri taoloning insonni hattoki farishtalardan ham ustun va ulug‘ qilib yaratgani, insonni yerdagi xalifam deb ataganligi, ya‘ni insonga barcha yaratganlaridan ko‘ra ko‘proq muhabbat bergani, unga tafakkur qilish imkoni berilganligini nazarda tutadi. Demak inson boshqa jamiki mavjudotlardan sarbalanddir.

Muhammad Rizo Ogahiy barcha insonlar bu hayotda aqlga egalik qilishlari bilan bir ekanligi, lekin aqliy darajalari bilan bir-biridan farqlanishlarini majoziy tarzda tushuntirgan. U aql egalarini ikki turga bo‘ladi. Yuksak aql egalari va xudbin aql egalari. Insonlar mana shu aql darajalariga qarab ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlariga ega bo‘ladilar. Ogahiyning zamondoshi bo‘lgan Munis Xorazmiy ham o‘z g‘azallarida olam va borliqning mavjudligini aks ettiradi. Xorazmiy ana shunday ahamiyatdagi g‘azalida uning naqshbandiya tariqatiga xayrihohligi ifoda etilgan:

Soliki rohi fano ko‘rmas safar ranginikim,

Naqshbandiy manzili maqsaddur avval kam ango.

Ogahiy bu g‘azali bilan inson qalbi eng oliy xazina bo‘lib unda Olloh maskan tutadi. Dilida Olloh bo‘lgan kishi botiniy go‘zal bo‘lib, mutlaq ruhning jilvasi bilan kamolot sari intiladi. Mutlaq ezgulik egasi bo‘lmish Olloh o‘zining ilohiy kitobi bo‘lmish Qur‘oni Karimda insonni ezgu ishlar qilish, ezgulikka ezgulik bilan javob



berish uchun yaratdi. Zero, Olloh insonni yaratib, ezgulik namunasini ko'rsatgan ekan, uning bandasi bo'lmish odamzod ham ezgulikka ezgulik bilan javob berishi kerak. Shuning uchun ham Ogahiy e'tiqodni ezgulikka va go'zallikka muhabbatning ularga iqtido qilishning eng oliy darajasi deyish mumkin deb hisoblaydi. Shu ma'noda u inson ezgulikka e'tiqod orqaligina erishadi degan fikrni olg'a suradi. Binobarin Qur'oni Karim va hadislarda haqiqiy ezgulikning yuksak namunalari qayd etib o'tilgan. Zero, "....butun islom dunyosi jumladan, respublikamiz aholisi o'z tarixiy o'tmishida barcha inson zotiga mehr va muruvvat ko'rsatishni o'zining muqaddas vazifalaridan biri" deb bilgan.

Ey, Sho'x, ko'z-u qoshinga olam gado, man ham gado,
La'li labi durposhinga olam gado, man ham gado.
Qadd-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon,
Ushbu nihon-u foshinga olam gado, man ham gado.

Mazkur g'azalda shoir dilbarning afsonaviy tasvirini beradi. Uning olamni gado qilgulik go'zal portretini chizadi. Shu asnoda oshiqni unga bog'lab turgan insoniy rishtalarni ham ko'rsatadi. Oshiq javobsiz, umid qilmaydigan muhabbati bilan yorga intiladi. U ma'shuqaga yetishishdan emas, balki intilishning o'zidan masrur.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Muhammad Rizo Ogahiy asarlarini tahlil qilar ekanmiz ulardagi yuksak axloqiy ma'naviy fazilatlar insonni ezgulikka, oliyanob ishlarga yetaklaydi. Ogahiy ma'naviy-axloqiy fazilatlarini universal voqelik darajasida tushungan, shuning uchun kishilarga hurmat e'tibor, vatanparvarlik, fidoyilik, ma'rifatparvarlikni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan birga olib borishga da'vat etgan. Ogahiy ijodidagi bunday ma'naviy-axloqiy fazilatlarga universal voqelik sifatida qarash Ogahiy asarlarida ilm-ma'rifat insonga xos ma'naviy-axloqiy go'zal fazilat sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. uz.m.wikipedia.Org
2. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, 1 jild Devon. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-54.b
3. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, 1 jild Devon. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.-367.b
4. "Munis ul-ushshog" O'zFAShI. Inv N-°940.1a varoq
5. Karimov T. Qodirov M. Ezgulikning ijtimoiy mazmuni va uning takomil bosqichlari.
6. cyberleninka.ru